JIZZAX VILOYATI BAXMAL TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 13-dekabr | 367-3-44-Q/24 | Baxmal tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-40-moddalariga hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomiga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-son qarorining 8.2-bandiga asosan tumanda 2025-yilga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini eng kam sonini belgilash va ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-40-moddalariga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni 20 nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan korxona, muassasa va tashkilotlarga 2025-yil uchun 7 foizgacha (shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun uch foizidan kam bo’lmagan) jami 64 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomiga asosan tashkilotlarda joriy yilda ishga joylashtirilgan shaxslar ish o’rinlari 2025-yil uchun band qilib qo’yiladigan ish o’rinlari sonini belgilashda hisobga olinsin.

Shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun 7 foiz (23 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 7 foiz (23 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 7 foiz (5 kishi);

nogironlar va pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 3 foiz (4 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 7 foiz (4 kishi);

tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 7 foiz (4 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari. (0 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘rovonlik natijasida jabrlanganlar uchun 7 foiz (1 kishi);

Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 7 foiz (0 kishi);

2. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi ta’minlansin, xususan, yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va 14 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun - bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlarga, shuningdek oliy o‘quv yurtlarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilari uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilganlar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironlar uchun - mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘lig‘ining ahvoli va

mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid koʻrsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish oʻrinlari;

tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun -maxsus malakani talab qilmaydigan ish oʻrinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga koʻra tibbiy yoʻsindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun - ularning kasb boʻyicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish oʻrinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega boʻlmagan shaxslar uchun esa - maxsus malakani talab qilmaydigan ish oʻrinlari;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun - ularning kasb boʻyicha tayyorgarligiga muvofiq boʻlgan ish oʻrinlari.

oilaviy (maishiy) zoʻrovonlik natijasida jabrlanganlar uchun maxsus malakani talab qilmaydigan ish oʻrinlari;

Atrofdagilar uchun xavf tugʻdirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun maxsus malakani talab qilmaydigan ish oʻrinlari;

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qoʻyilgan ish oʻrni ilgari ushbu ish oʻrnini egallab kelgan shaxs bilan tuzilgan mehnat shartnomasi toʻxtatilishi munosabati bilan boʻshab qolganda bu haqda tashkilot 10 kun muddatda tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimini yangidan ochilgan boʻsh ish oʻrni toʻgʻrisida xabardor etishi belgilansin.

4. Mulkchilik shaklidan qat’i nazar barcha korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish oʻrinlarini belgilangan soni hisobida yil boshlangungacha 10 kundan kechikmay 25 foiz, qolgan qismini band qilib qoʻyishni keyingi kalendar yilning birinchi choragida ta’minlasinlar.

Ish oʻrinlarini zaxiraga qoʻyilgan tashkilotlar har oyning hisobot oyidan keyingi kunning 5-sanasigacha tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimiga ushbu toifadagi shaxslarni ishga joylashtirilishi toʻgʻrisida belgilangan tartibda axborot taqdim etsinlar.

5. Ushbu qarorni bajarmagan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jarima solinadi.

Belgilab qoʻyilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish

bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarimani to‘laganlik tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmaydi.

6. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etilgan taqdirda sarflangan mablag‘larning bir qismini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bilan tuzilgan shartnoma asosida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi mablag‘lari hisobidan qoplanishi ta’minlasin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2021-yil 21-dekabrdagi PQ-57-son qaroriga muvofiq Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga (budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg‘armasida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) har bir xodim uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari miqdorida subsidiya ajratilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-sentabrdagi “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qo‘llab-quvvatlash va ularning bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida“gi 450-sonli qaroriga asosan Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga (budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav (fondi) kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) har bir shaxs uchun uch oydan ortiq muddatda mehnat faoliyatini davom ettirgandan so‘ng bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida bir martalik subsidiya ajratilsin.

9. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish jadval 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

10. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bir hafta muddatda ushbu qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va mazkur qarorning bajarilishini ta’minlasin.

11. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Sharipov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b



Sharipov Nodirbek Boshbekovich

Baxmal tumani tuman hokimining
2024-yil 13-dekabrdagi
367-3-44-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Baxmal tumani bo'yicha 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yilgan ish o'rinlariga ishga joylashtirish bo'yicha

MANZILLI JADVAL

	Tuman nomi	Topshiriq belgilangan korxona nomi	Korxonani INN raqami	korxonada ishlovchilar soni	Jami band qilingan ish o'rinlari soni	shu jumladan:								
						14 yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz otaga yoki onaga, shuningdek ko'p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari	Muddatli xarbiy xizmatdan bo'shatilganlar	Nogironlar uchun	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun	Jazoni o'tash muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun	Odam savdosi qurboni uchun	Atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar hamda qonun xujjatlarga muvofiq boshqa shaxslar uchun	oilaviy (maishiy) zo'rovonlik natijasida jabrlanganlar uchun
1	Baxmal	BAXMAL DAVLAT O'RMON XO'JALIGI	201030162	124	4	1	1	1		1				
2	Baxmal	Baxmal tumani tibbiyot birlashmasi	201774004	1215	20	8	7	1	1		2			1

3	Baxmal	Baxmal tumani hokimligi "OBODONLAShTIRISh BOShQARMASI"	201029502	296	4		1	1		1	1			
4	Baxmal	BAXMAL TUMAN YO'LLARDAN FOYDALANISH	201030154	83	4	1	1			1	1			
5	Baxmal	Baxmal tuman 1-son kasb-hunar maktabi	203262062	72	1		1							
7	Baxmal	Baxmal tumani 17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867098	30	1				1					
8	Baxmal	Baxmal tumani 18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206869206	72	1					1				
9	Baxmal	Baxmal tumani 21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867200	43	1	1								
10	Baxmal	Baxmal tumani 23-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206870214	46	1		1							
11	Baxmal	Baxmal tumani 25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867106	55	1	1								
12	Baxmal	Baxmal tumani 26-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867153	42	1		1							
13	Baxmal	Baxmal tumani 27-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867177	31	1	1								
14	Baxmal	Baxmal tumani 28-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867184	31	1		1							

15	Baxmal	Baxmal tumani 29-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867160	29	1		1							
16	Baxmal	Baxmal tumani 32-sonli umumiy o'rta talim maktabi	206867034	55	1	1								
17	Baxmal	Baxmal tumani 33-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206862303	55	1				1					
18	Baxmal	Baxmal tumani 35-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206870174	44	1		1							
19	Baxmal	Baxmal tumani 36-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206871964	78	1	1								
20	Baxmal	Baxmal tumani 37-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206870135	85	1				1					
21	Baxmal	Baxmal tumani 39-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206870064	36	1	1								
22	Baxmal	Baxmal tumani 41-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867066	55	1		1							
23	Baxmal	Baxmal tumani 42-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867074	46	1		1							
24	Baxmal	Baxmal tumani 44-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867081	80	1			1						
25	Baxmal	Baxmal tumani 45-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206863966	65	1	1								

26	Baxmal	Baxmal tumani 46-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206885994	55	1	1								
27	Baxmal	Baxmal tumani 48-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206866993	93	1			1						
28	Baxmal	Baxmal tumani 49-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206882587	24	1		1							
29	Baxmal	BAXMAL TUMANI 51-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206871972	27	1	1								
30	Baxmal	Baxmal tumani 52-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206867217	60	1		1							
31	Baxmal	Baxmal tumani 53-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206869214	32	1	1								
32	Baxmal	Baxmal tumani 55-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206870111	27	1		1							
33	Baxmal	Baxmal tumani 57-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	206866978	68	1		1							
34	Baxmal	Baxmal tumani 58-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	206871989	32	1	1								
35	Baxmal	Baxmal tuman 2-son kasb-hunar maktabi	206969500	82	1	1								
36	Baxmal	Baxmal tumani 8-sonli "LOLA" nomli maktabgacha ta'lim	207055775	61	1		1							

		muassasasi												
37	Baxmal	Baxmal tumani 5-sonli "DO’STLIK" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	207055790	38	1	1								
Jami			**X**	**1649**	**64**	**23**	**23**	**5**	**4**	**4**	**4**			**1**